

qiladi. Shuningdek, o'zbek xalq maqollari tarkibidagi antonimlarning leksik-semantik, funksional xususiyatlarini o'rganish shu xalq madaniyati, dunyoqarashi, qadriyatlar haqida muhim ma'lumotlar berishi bilan, qolaversa, o'zbek tili leksikologiyasi, semasiologiyasiga doir bir qancha xulosalar bera olishi bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, antonim, sinonim lug'atlarni va leksemalarning semantik taraqqiyotiga oid bilimlarni boyitishda muhim manba o'laroq xizmat qiladi.

O'zbek xalq maqollarida kontekstual antonimlarning idrok va talqin masalalari lingvistik, semantik va kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Kontekstual antonimlar situativ holatga qarab ma'no hosil qiladi va talqin qilinadi. Bu jarayon xalq tafakkuri va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq. Maqollar til, ma'no va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabatni aks ettiradi, tilshunoslik va kognitiv lingvistika uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fontaine C.R. Proverbs' Performance in the Hebrew Bible // Wise words: Essay on the proverb. – New York: Garland Publishing, 1994. – P. 393 - 413.
2. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. Toshkent – "Talqin" – 2005. 171-b.
3. Краткий словарь когнитивных терминов / Е.С. Кубрякова, В.З. Демьянков, Ю.Г. Панкрац, Л.Г. Лузина. Под общей ред. Е.С. Кубряковой. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996. – 245 с.
4. Кубрякова Е.С. Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: МГУ, 1996а. – С.90-93.
5. Левин Ю.И. Провербиальное пространство // Паремнологические исследования. Сб. статей. – М.: Наука, 1984. – С.108 – 126.
6. Миртожиев М. Хозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент, 2004.
7. Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек тили. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

Rasulova Azizaxon Muydinovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, FarDU dotsenti ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-6591-0521>
azizakhon.rasulova@gmail.com



TILSHUNOSLIKDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING YADRO-PERIFERIYA MUNOSABATI

<https://zenodo.org/records/18728962>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida sintaktik birliklar funksional-maydon yondashuvi asosida yadro va periferiya munosabatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sintaktik kategoriyalarning markaziy va chekka qatlamlari aniqlanib, ularning nutqiy faolligi, kommunikativ yuklamasi va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Sodda va murakkab gaplar, to'liqsiz hamda elliptik konstruksiyalar izohlanadi.

Kalit soʻz va iboralar: sintaktik maydon, markaz, periferiya, predikativlik, toʻliqsiz gap, ellipsis, funksional sintaksis.

CORE-PERIPHERAL RELATIONSHIP OF SYNTACTIC UNITS IN LINGUISTICS

Annotation: This article analyzes syntactic units in Uzbek linguistics in terms of the core and periphery based on the functional-field approach. The study identifies the central and peripheral layers of syntactic categories, and highlights their speech activity, communicative load, and pragmatic properties. Simple and complex sentences, incomplete and elliptical constructions are explained.

Key words and phrases: syntactic field, center, periphery, predicativity, incomplete sentence, ellipsis, functional syntax.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ЯДРОМ И ПЕРИФЕРИЕЙ СИНТАКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация: В данной статье анализируются синтаксические единицы в узбекской лингвистике с точки зрения ядра и периферии на основе функционально-полевого подхода. В исследовании определены центральный и периферийный слои синтаксических категорий, а также освещены их речевая активность, коммуникативная нагрузка и прагматические свойства. Объясняются простые и сложные предложения, неполные и эллиптические конструкции.

Ключевые слова и выражения: синтаксическое поле, центр, периферия, предикативность, неполное предложение, эллипсис, функциональный синтаксис.

Kirish.

Hozirgi zamon tilshunosligida sintaksis faqatgina strukturaviy birliklar majmuasi sifatida emas, balki nutqiy faoliyat va kommunikativ jarayon bilan uzviy bogʻliq boʻlgan murakkab tizim sifatida tadqiq etilmoqda. Sintaktik birliklarning oʻzaro munosabati, ularning matn hosil qilishdagi roli hamda kommunikativ vazifalarni bajarishdagi imkoniyatlari zamonaviy lingvistika tadqiqotlarining markazida turibdi.

Shu nuqtayi nazardan, funksional maydon yondashuvi til birliklarini faqat formal tuzilma sifatida emas, balki ularning nutqiy faollik darajasi, qoʻllanish chastotasi va kommunikativ vaziyatlarda tutgan oʻrni bilan birgalikda oʻrganishga imkon beradi. Bu yondashuv til tizimining dinamik xususiyatlarini ochib berish, yaʼni birliklarning real nutq jarayonida qanday ishlatilishini aniqlashda samarali metod sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sintaktik maydon doirasida birliklar yadro (markaziy) va periferik (chekka) qatlamlarga ajratiladi. Bu ajratish grammatik meʼyor, nutq vaziyati va kommunikativ ehtiyojlar bilan chambarchas bogʻliq [7]. Markaziy birliklar (faol qoʻllanadigan konstruktsiyalar) sodda gaplar (Men kitob oʻqiyapman) va qoʻshma gaplar (Men kitob oʻqiyapman va kerakli oʻrinlarini yozib olayapman) dan iborat boʻladi. Sodda gaplar nutqda eng koʻp uchraydi, asosiy kommunikativ vazifani bajaradi, qoʻshma gaplar sintaktik jihatdan murakkabroq boʻlsa-da, kundalik nutqda juda faol ishlatiladi.

Periferik birliklar kamroq qoʻllanadigan, lekin muhim vaziyatlarda zarur konstruktsiyalar hisoblanadi. Ularga inversiyaga uchragan gaplar (Men nechun sevaman Oʻzbekistonni?), elliptik gaplar (Kitobni? yoki Boraman), ritorik konstruktsiyalar (Kim biladi bu sirni?) kiradi. Inversiyaga uchragan gaplar kam qoʻllanadi, ammo nutqda

ta'kid yoki uslubiy maqsad uchun ishlatiladi. Elliptik gaplar kontekstga bog'liq holda qo'llansa-da, qisqa va tezkor muloqotda samarali natija beradi. Ritorik konstruksiyalarda esa asosiy maqsad axborot berish emas, balki ta'sirchanlikni oshirish hisoblanadi.

Natija va muhokama.

Markaziy birliklar nutqda eng ko'p qo'llanadigan, kommunikativ vazifani to'liq bajaradigan elementlar bo'lsa, periferik birliklar esa kamroq qo'llanadi, biroq ma'lum nutqiy vaziyatlarda muhim pragmatik yukni o'z zimmasiga olishi mumkin. Shu tariqa, sintaksisning funksional maydon asosida o'rganilishi til tizimining statik va dinamik jihatlarini uyg'unlashtiradi.

Natijada, sintaktik birliklarning faollik darajasi, ularning matn hosil qilishdagi roli va kommunikativ jarayonlardagi funksional imkoniyatlari yanada aniqroq ko'rinadi. Bu esa tilshunoslikda sintaksisni faqat strukturaviy model sifatida emas, balki nutqiy faoliyatning faol mexanizmi sifatida talqin etishga zamin yaratadi. O'zbek tili sintaksisida mazkur masala yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, markaz-periferiya munosabatining tizimli tahlili alohida ilmiy muammo sifatida dolzarbligicha qolmoqda.

Sintaktik maydon muayyan grammatik kategoriyaning barcha ifoda vositalarini qamrab oladi. Bu maydonda markaziy birliklar grammatik jihatdan to'liq va me'yoriy bo'lsa, periferik birliklar kontekstga bog'liq holda yuzaga chiqadi [5].

Markaz va periferiya o'rtasidagi farq absolyut emas, balki gradatsion xarakterga ega bo'lib, nutq vaziyatiga ko'ra o'zgarib turadi.

O'zbek tilida sintaktik maydon markazini, avvalo, ega va kesim asosida shakllangan sodda gaplar tashkil etadi. Bunday gaplarda predikativlik to'liq ifodalanadi. Masalan, Talabalar ilmiy seminarda faol ishtirok etdi. Ushbu gapda ega va kesim o'zaro moslashgan, zamon va shaxs ko'rsatkichlari aniq. Shu sababli mazkur konstruksiya sintaktik maydonning yadrosiga mansub hisoblanadi [6].

Shuningdek, darak gaplarning betaraf shakllari ham markaziy birliklar qatoriga kiradi: Bugun fakultetimizda konferensiya boshlanadi.

Tilshunoslikda periferik sintaktik birliklar deganda to'liqsiz, egasiz va elliptik gaplar kabi konstruksiyalar nazarda tutiladi. Ular strukturaviy jihatdan to'liq bo'lmasa-da, nutqiy vaziyatda mazmun tiklanadi va kommunikativ maqsad to'liq amalga oshadi.

To'liqsiz gaplarda muayyan bo'lak tushiriladi, biroq mazmun kontekst orqali tiklanadi. Masalan:

— Maqolani topshirdingizmi?

— Topshirdim.

Bu holatda ega ifodalanmagan bo'lsa-da, gapning kommunikativ vazifasi to'liq bajariladi. Shu sababli to'liqsiz gaplar sintaktik periferiya birliklari sifatida baholanadi [8].

Egasiz gaplarda harakat bajaruvchisi umumlashtirilgan bo'ladi:

Bu yerda suhbatlashish taqiqlanadi.

Bunday konstruksiyalar ko'proq rasmiy-uslubda faol qo'llanadi va sintaktik tizimning periferik qatlamini tashkil etadi.

Ellipsis nutqni ixchamlashtirishga xizmat qiladi. Masalan:

Men ilmiy kengashga, u esa kutubxonaga.

Bu holatda kesim tushirilgan bo'lsa-da, mazmun aniq va tushunarli. Shuning uchun elliptik konstruksiyalar sintaktik periferiya uchun xos birliklar sifatida talqin etiladi [5].

Sintaktik tizimda markaz va periferiya o'rtasida doimiy dinamik munosabat mavjud. Nutq jarayonida periferik birliklar ba'zan kommunikativ markazga aylanishi mumkin. Ayniqsa, dialogik va badiiy matnlarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi:

- Qayerga?
- Universitetga.

Bu misolda to'liqsiz gap asosiy axborotni tashuvchi birlik sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, periferik birliklar nutqiy vaziyatda markaziy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Xulosa.

Aytish mumkinki, periferik sintaktik birliklar — to'liqsiz gaplar, egasiz gaplar va elliptik konstruksiyalar — til tizimining muhim qatlamini tashkil etadi. Ular nutqiy vaziyatda mazmunni ixcham, ta'sirchan va kontekstga mos tarzda ifodalash imkonini beradi. Shu bois, sintaksisni faqat strukturaviy birliklar majmuasi sifatida emas, balki nutqiy va kommunikativ jarayon bilan uzviy bog'liq dinamik tizim sifatida o'rganish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili sintaksisi markaz va periferiya o'rtasidagi dinamik munosabat asosida faoliyat yuritadi. Markaziy birliklar grammatik me'yorni ifodalasa, periferik birliklar nutqning kommunikativ va pragmatik ehtiyojlarini ta'minlaydi. Funktsional-maydon yondashuvi sintaktik tizimni yaxlit va harakatchan hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бондарко А.В. (ред.) Проблемы функциональной грамматики: Полевые структуры. —СПб.: Наука, 2005. — 480 с.
2. Щур Г.С. Теории поля в лингвистике. — М.: Наука, 1974.— 253 с.
3. Porzig W. Wesenhafte Bedeutungsbeziehungen. — Btitrage zur Geschichte der deutsche Sprache und Literatur. — 1934. S. 58. 70–97.
<https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
4. Comrie, B. (1986). Tense. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Akademnashr, 2008.
6. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. — Toshkent: Fan, 2010.
7. Расулова А. Ўзбек тилининг шарт ва тўсиқсизлик майдони. Монография. Фарғона – 2020
8. Расулова А. Тил сатҳида майдонлараро боғланиш. “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент, №2 , 2021. – Б. 122-125.

Polvonova Bashoratxon Mirobijonovna polvonovabashoratxon@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b., dotsent

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'qituvchisi